



AHOLI TADBIRKORLIGINI OSHIRISHDA BANKLARNING O'RNI

PhD, dots. **Murodova Mohigul Chori qizi**
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
ORCID: 0009-0000-0011-0515
mohigul777_murodova@mail.ru

Annotatsiya. Vatanimizda yosh avlod uchun ayniqsa ularni jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lishlari uchun yoshlarga oid siyosatni ishlab chiqilgani va bu siyosatni qonuniy asos bilan mustahkamlanganligi va bosh qomusimiz O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va bir qancha me'yoriy hujjatlarda keltirib o'tilganligi, shuningdek, aholi tadbirkorligini oshirishda daromadlilikni ta'minlash masalalariga qaratilgan tadqiqotlar bayoni keltirilgan.

Aholida kuzatilayotgan muammoli vaziyatlar va yechimlari, aholini ilmiy salohiyati, ta'lim berishdagi holatlar, ijtimoiy holati yaxshi bo'lmagan aholiga ko'maklashish, ma'naviy yetuklik darajasiga erishishda ularga zamon talabi asosida tarbiya berish va ayniqsa ularni ish bilan ta'minlash kabi masalalarga e'tibor bergan holda ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalar berilgan.

Maqolada aholi tadbirkorligini oshirishda banklarning o'rni bo'yicha berilgan taklif va tavsiyalar asosida ATB "Mikrokreditbank" hisobotlarini tuzish jarayonida qo'llash yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: tijorat banki, kredit, daromad, "Temir daftar", "Ayollar daftari", "Yoshlar daftari", "mahallabay", "xonadonbay", ish haqi, foyda, kambag'allik, kapital.

РОЛЬ БАНКОВ В РАЗВИТИИ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ НАСЕЛЕНИЯ

PhD, доц. **Муродова Мохигул Чори кизи**
Ташкентский государственный экономический университет

Аннотация. Также важно отметить, что в нашей стране разработана молодежная политика для молодого поколения, специально для того, чтобы они заняли свое место в обществе, и эта политика подкреплена правовой основой и закреплена в нашем главном документе, Конституция Республики Узбекистан и ряд нормативных документов. Представлено изложение исследования, направленного на обеспечение рентабельности в развитии предпринимательской деятельности населения.

Такие вопросы, как текущие проблемы, наблюдаемые среди населения, и пути их решения, научный потенциал населения, ситуация в сфере образования, помощь населению с низким социальным статусом, предоставление им современного образования для достижения уровня духовной зрелости, и особенно предоставление их трудоустройством. Даны научные предложения и практические рекомендации с учетом

В статье разработаны рекомендации по применению предложений и рекомендаций о роли банков в повышении предпринимательской активности населения в процессе составления отчетности АКБ «Микрокредитбанк».

Ключевые слова: коммерческий банк, кредит, доход, "Темир дафтар", "Аёллар дафтари", "Ёшлар дафтари", "маҳаллабай", "хонадонбай", заработная плата, прибыль, бедность, капитал.

THE ROLE OF BANKS IN INCREASING POPULATION ENTREPRENEURSHIP

PhD, assoc. prof. **Murodova Mohigul Chori kizi**
Tashkent State the University of Economics

Abstract. *In our country, a youth policy has been developed for the younger generation, especially for them to take their place in society, and this policy has been strengthened by a legal basis and is enshrined in our main document, the Constitution of the Republic of Uzbekistan and a number of regulatory documents, as well as a statement of research aimed at ensuring profitability in increasing population entrepreneurship.*

Scientific proposals and practical recommendations are given, paying attention to issues such as the current situation and solutions observed in the population, the scientific potential of the population, the situation in education, assistance to the population with poor social status, providing them with modern education in achieving a level of spiritual maturity, and especially providing them with employment.

The article develops recommendations on the application of the proposals and recommendations on the role of banks in increasing population entrepreneurship in the process of compiling reports of JSCB "Mikrokreditbank".

Keywords: *commercial bank, credit, income, "Temir daftar", "Ayollar daftari", "Yoshlar daftari", "mahallabay", "xonadonbay", wages, profits, poverty, capital.*

Kirish.

O'zbekistonning davlar raxbari muhtaram prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev e'tirof etganidek, "barchamiz yaxshi tushunamizki, yoshlarga yo'l berishda va ularga tadbirkorlikni singdirish juda muhim hisoblanadi. Tadbirkorlik, ishbilarmonlik bu yosh avlodga mos va xos xislatdir" (Mirziyoev, 2021). Mahalla asrlar davomida o'zini o'zi boshqaradigan ijtimoiy tuzilma bo'lib bunda, manaviy tadbirlani, ijtimoiy va iqtisodiy ahvoli yaxshi bo'lmagan aholini boshqaradi. Yurtimizda o'z o'rniga ega bo'lib kelayotgan tuzilmadir. So'nggi yillarda mazkur institutga e'tibor kuchaydi. Aholining barcha muammolari endi mahallaning o'zida hal etiladigan bo'ldi. "Temir daftar", "Ayollar daftari", "Yoshlar daftari" tashkil etildi. Aholi bilan ishlashning "mahallabay", "xonadonbay" tizimi yo'lga qo'yildi.

Jamiyatda tadbirkorlikni keng targ'ib etib tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash doimiy shakilda davom etsa o'sha davlat yoshlarini ishsizlik darajasi kamayish bilan birgalikda ularni daromadlilik darajasi oshishiga va o'z navbatida yashash sharoiti va ta'lim olishga imkoniyati ortib boradi. Moddiy holati yaxshi bo'lgan yoshlardan yangi g'oyalar olish va uni jamiyatga tadbir etish imkoniyati kengayadi.

Adabiyotlar sharhi.

Aholimizning yoshlari soni bo'yicha 9,6 million yoshlarni tashkil etib shundan, 4,9 millioni erkaklarimizni 4,7 millioni ayollarimizni tashkil etadi. Shuni guvohi bo'lishimiz mumkinki, yurtimizni sal kam 60 foizi yoshlardan tashkil topgan bu rivojlanayotgan davlatlarga hos hususiyatdir. Shu maqsadda aholi tadbirkorligini ayniqsa yoshlarni qo'llab -quvvatlash va ularni daromadini oshirish juda muhim bo'lib, olimlar tomonidan daromadni oshirishdagi xulosalar keltirilgan.

Fisher (1995) topadigan daroma sarflaydiga xarajatlar uchun yetarli emasligi va ehtiyojlarni qoplay olmagan jismoniy shaxslardir. Ba'zi oilalar jismonan tirik qolishga imkoniyati mavjud bo'lsada, axloqiy-madaniy jihatdan cheklanadi. Buning boisi ularning daromadlari belgilangan darajadan ancha past bo'ladi. Shuning uchun ham tadqiqot ishimizda xalqaro va mahaliy olimlarning daromad bo'yicha bergan ta'riflarini ko'rib o'tamiz.

Xorijlik yetakchi iqtisodchi olimlar daromadni mehnat va kapitalni samarali ishlatish natijasi deb hisobladilar. Petti (1940) daromadni o'zgaralar mehnati mahsuli deb izohlagan. Smit

(1962) daromad ish haqqi va foyda natijasida yuzaga keladi deydi. Shu bilan daromadni oshishida uchta manba asos bo'ladi bular: ish haqqi, foyda, va rentadir.

Smit taqsimotdagi ziddiylikka to'xtalib, xususan, kapital va foydani (olinishi) paydo bo'lishi jarayonlaridagi shakillanayotgan qarama-qarshiliklarni ko'rsatadi deb qaraydi. Iqtisodiy sub'ektlar tomoidan olingan daromadlar iqtisodiy manfaatlar ta'sirida o'ziga xos shakilni olishini nazarda tutgan.

Rikardo (1951) daromadni talqini keng uslubda namoyon etilgan. Olim ishlab chiqarish sohasiga ko'proq e'tiborini qaratib, ish haqi va foydaning ziddiyliги shu yerda joylashuviga e'tibor berdi. U ham ishlab chiqarishning ijtimoiy shakli taqsimot qonunlari orqali aniqlanadi deb qaraydi.

Sey ishlab chiqarishning 3 ta omiliga asosiy e'tiborini qaratadi. Uning fikricha, kapital harakatsiz (o'lik) vosita, lekin tabiat va inson kuchi ta'sirida mahsulot yaratishi mumkin deb hisoblanadi. Kam xarjlik ko'p daromadni beradi va o'z navbatida jamg'arish inson uchun hadiyadekdir deb ta'kidlaydi. U 3 omil iqtisodiyotda teng rol o'ynashini va bu ular daromadida ifodalanishini tahlil qiladi (Sey, 1803).

Daromadlarning iqtisodiy mazmunini tahlil qilishda Xiks (1993) o'ziga xos yondoshuvni qo'llaganligini kuzatish mumkin. Uning fikricha, daromad turli davrda va har xil manbalarga nisbatan bir xil xarakter kasb etmaydi. Bir qarashda daromadlar miqdoran kelib tushishi bilan mazmun kasb etsa, ikkinchi xolatda daromad iqtisodiy vaziyatning o'zgarishiga nisbatan mavjud bo'ladi. Daromadlar shaklan va miqdoran o'zgarib turadi. O'zbekiston bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida bozor va nobozor sharoitidagi daromadlarga ajralgan holda iqtisodchi olim Hasanov (2016) o'zining ilmiy ishida tadqiq qilgan unga ko'ra: bozor daromadlari bozor qoidasida amal qilsa, nobozor daromadlarida o'zgaralar himoyasiga muhtojlik qoidasi ham amala qiladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida mamlakat aholisining hammasi ham o'zini o'zi daromad bilan ta'minlay olmaydi. Davlat kam daromadli aholi qatlamlariga ko'mak ko'rsatadi. Mamlakatimiz daromadlar borasidagi siyosatida ish haqqining eng kam miqdorini belgilash asosiy o'rinda turadi.

Yurtimizda kambag'allikning kelib chiqish sabablari o'rganib, muhtojlik darajasi aniqlanadi. Yurtimiz iqtisodchi olimlari kambag'allikga tarif berishda bir qancha olimlarimiz ilmiy izlanish olib borgan shundan, G'aniev (2023) bozor iqtisodiyoti sharoitida o'zgaruvchan daromadlar tengsizligi va ijtimoiy, iqtisodiy, tibbiy, ekologik, demografik jarayonlar bilan bog'langan munosabatlarning mahsuli bo'lib, insonlarning minimal iste'moli uchun hayotiy zarur ne'matlarning yetarli bo'lmasligi tushuniladi deb keltirib o'tadilar.

Maxmudov (2021) hayot uchun muhim bo'lgan, eng zarur minimal ehtiyojlarni qondira olmaydigan, ishga layoqatli hisoblanib, istagan kasbga ega bo'lish imkoniyatini cheklanganligi.

Xudoyberdiev (2024) turmush sharoitida zarur bo'lgan eng kam ehtiyojini qoplay olmagan iqtisodiy holati tang ahvolga eha yoshlar yoki oilalardir degan.

Tadqiqot metodologiyasi.

O'zbekiston Respublikasida tijorat banklari aholi tadbirkorligini ta'minlash maqsadida imtiyozli kreditlar berilish ayniqsa yosh qatlamni qo'llashi hozirda asosi maqsad bo'lib, мамлакат банк тизими ва тўлов тизимларининг барқарорлигини таъминлаш бўлгани ҳолда, пул массасининг ўсиш суръати пул-кредит сиёсатининг тактик мақсадлари ҳисобланади.


Ilmiy tadqiqotni bajarishda statistik guruhlash, induksiya va deduksiya, ekspert baholash, qiyosiy va trendli tahlil usullaridan foydalanildi.

Ilmiy maqolani yozishda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma'lumotlaridan, "Mikrokreditbank" ATB rasmiy sayti ma'lumotlaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Davlat raxbarimiz aytganidek, mahalla haqiqatan ham, jamiyatimizning eng xalqchil instituti hisoblanadi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 9-avgustdagi 504-son “Hududlarda “mahallabay” ishlash asosida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish va aholining doimiy daromad manbalarini ko‘paytirish orqali kambag‘allikni qisqartirish chora-tadbirlari to‘g‘risida qarori”ga asosan dastaklar yaratilgan.

1-rasmda tadbirkorlikni rivojlanishida mahalaning o‘rni beqiyos bo‘lib, shu yerda yashayotgan aholini o‘zini o‘zi band qilishda davlat tomonidan amalga oshirilayotgan iqtisodiy ko‘maklar juda o‘rinlidir ayniqsa davlat tomonidan tadbirkorlikni rivojlantirish maqsadida imtiyoz asosida davlat dasturlarni misol qilsak bo‘ladi. Dasturlarni asosiy maqsadi aholini ish bilan bandligini ta‘minlash va YAIM katta qo‘shishdir. Bu dasturga asosan xiamat ko‘rsatish, ishlab chiqarish, kichik tadbirkorlikni yo‘lga qo‘yish va shu bilan birgalikda oilaviy tadbirkorlikni boshlashga asos bo‘ldi. Buni samarasi o‘laroq mahallla aholisi o‘z hududidan uzoqlashmagan holda ish faoliyatini tashkil etadi va shu bilan bir qatorda aholini ish bilan ta‘minlash imkoniyati ortib boradi. Hududlarda tadbirkorlar soni ortishi aholining og‘ir qatlamlari uchun yangi ish joylarni daromad manbalarni yuzga keltiradi shuningdek, tadbirkorlar soni ortib bormoqda.



1-rasm. 2017-2023-yillarda O‘zbekiston Respublikasida tadbirkorlik sohasida amalga oshirilgan muhim islohotlar natijasi (stat.uz, n.d.)

O‘zbekistonda 2017-yildan boshlab biznesni ro‘yxatga olish osonlashtirildi. Natijada ro‘yxatga olingan tadbirkorlik subyektlari soni 2017-yilda 225,6 mingtani tashkil etgan bo‘lsa, 2023-yil so‘ngiga kelganda 555,9 mingtaga yetdi yoki 2017-yildagiga nisbatan 2,4 barobar ko‘paydi. 2017-2023-yillarda mobaynida yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari 2,3 barobarga o‘sgan lekin o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 4,6 foizga kam demakdir. Lekin ro‘yxatdan o‘tgan kichik tadbirkorlik subyektlari esa 30,2 mingtasi tugatilgan.

Bu ham qonunga asoslanib Hukumatimiz raxbari tomonidan 2020 yil 13 oktyabrda PQ-4862 qarorga asosan “Aholini tadbirkorlikka jalb qilish tizimini takomillashtirish va tadbirkorlikni rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora- tadbirlar to‘g‘risida”gi yoshlarni orzularini va kichik biznesini boshlashga va imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishga ko‘maklashilmoqda.

Davlat dasturida keltirilishicha qizlarimiz va yigitlarimizni tadbirkorlikni o‘rganish uchun ta‘lim olishlari uchun yetmish besh foiz to‘lovini amalga oshirilib berilyapdi. Yana bir yaxshi takliflardan bir bu o‘zni band qilgan yokida tadbirkorlikni boshlashni boshlayotgan avlod uchun mehnat qurollari va asbob uskunalar sotib olishi uchun BHM qiriq baravari miqdorida subsida ajartilishi imkoni berildi. Yalpi ishlab chiqarishga hissa qo‘shayotgan yoshlarimizga ham

juda katta imtiyozlarni taqdim qilayotgani juda qulay bo'lib, yer egasi yoki ikkilamchi ijara asosida yer berilgan kelajagimiz avlodlariga ko'chatlar va urug' sotib olish uchun BHM sakkiz baravarigacha mablag' ajratilgan. Bundan tashqari Chasniy sektorga 6 oydan oshmagan holda faoliyat yuritayotgan yoshlarni o'qishlari va qayta tayyorlashga o'qitishlari uchun BHM to'rt baravarigacha miqdordagi o'sha ko'rxona yokida tashkilotlarga kompensasiya qilinishi mumkin. Soliqda ro'yhatdan o'tgan yosh tadbirkorlar uchun noturar joy arendasi uchun bir yilgacha BHM yigirma besh baravarigacha to'lab beriladi.

Yurtimizda imtiyozli kreditlarni asosan uchta bank taqdim qilmoqda bular Xalq banki, Agrobank va Mikrokreditbanklardir.

Hozirda yurtimizda yoshlarni qo'llab-quvvatlashda banklarni o'rni juda yuqori bo'lib, bu banklardan ayniqsa "Mikrokreditbank"ni misol qilib olishimiz mumkin. Biz yuqorida keltirib o'tgan bank tomonida berilayotgan mikrokreditlar davlat raxbari aytagan ko'rsatkich asosida berilmoqda. Mikrokreditlarni asosiy qismi kasb va hunarga o'qigan va sertifikat olgan yoshlar uchun ajratilayotgani juda quvonchlidir.


Biz keltirib o'tgan bankda quyidagicha mikrokreditlar ajratilib kelinmoqda:

Qiz va yigitlar uchun endi biznesini boshlamoqchi bo'lsa o'ttiz uch million so'm ta'minot talab etmaydi;

Ikki yuz yigirma besh million so'mgacha eng ko'pida ta'minot talab qilgan holda kichik korxonalar va mikrofirmalar uchun;


Imtiyozli stavkada bo'lib, bu Markaziy bank tomonidan o'rnatilgan minimal miqdor asosida;

Uch yilga mo'ljalanga bo'lib imtiyozli davri olti oyni o'z ichiga oladi bu ma'lumotlar banklarning yillik hisobotlarida va qonun hujjatlarida keltirib o'tilgan (Mikrokreditbank yillik hisoboti 2022).



2-rasm. 2019-2022 yillarda Mikrokredit bank tomonidan oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturi doirasidagi kreditlar (mkbank.uz, n.d.)


2-rasmdan ko'rish mumkinki bank tomonidan axolini tadbirkorlikga keng jalb qilish, kambag'illikni qisqartirish yonalishlarida ishlab chiqilgan dasturlarning ijrosida faol ishtirok etib 81 626 nafar mijozga xizmat ko'rsatib 1.9 trln so'm mablag' ajratilib buning natijasida 84 364 nafar fuqoro ish bilan ta'minlandi. Ijtimoiy dastur doirasida 880.1 mlrd.so'm 44 345 nafar xotin-qizlarni, 767,8 mlrd. so'mi 30800 nafar yoshlar tadbirkorligini qo'llab quvvatlashga yo'naltirilgan. Xotin-qizlar tadbirkorligi uchun 876 mlrd.so'm, yoshlar tadbirkorligi uchun 766 mlrd.so'm, lider tadbirkorlar uchun 59.6 mlrd so'm hamda 1055 ta yangi tashkil etilgan korxonalar uchun 87 mlrd. so'mdan ortiq mablag' kreditlarga yo'naltirilgan.



3-rasm. Mikrokredit bank tomonidan oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturi doirasidagi aholi bandligi ko'rsatkichlari (mkbank.uz, n.d.)

3-rasmdagi ma'lumotlarga asosan PQ-4862-sonli qaror ijrosi asosida 2021-yilda jalb qilingan resurs mablag'i to'liq o'zlashtirilib, yoshlarning 16 311 ta loyihalariga 477,4 mlrd.so'm miqdorida kredit mablag'lari ajratildi va 17 698 ta yoshlar bandligi ta'minlandi. 2022 yilda 87033 nafar aholi bandligi ta'minlandi. Ushbu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 5360 nafarga ko'pdir (6 %). Jumladan, 26041 nafar yoshlar, 23061 nafari xotin-qizlar, 20215 nafari o'zini o'zi band qilganlar, 14879 nafari ijtimoiy daftardagi shaxslar bandligi ta'minlangan.

Inson mablag' topishdan asosiy mazmuni kelajak uchun va ijtimoiy va iqtisodiy ravnaq topishida asosiy dastak hisoblanadi. Daromad qanchalik ko'p bo'lsa insonlarni turmush sharoitini va yaxshi yashashni shuningdek erkin harakat qilishga olib boradi. Bunda daromadlar mazmunan xatti-harakat samarasini yuksalishiga ko'maklashadi.



4-rasm. Aholi daromadlarining chiziqli tenglama yordamida prognozi (Xudoyberdiev, 2024)

O'zbekistonda aholi daromadlari va unga ta'sir etuvchi omillar asosida ko'p omilli ekonometrik model tuzish, tuzilgan modelni turli testlar orqali tekshirish hamda modelning statistik ahamiyatligini aniqlab, kelgusi davrlarga prognozlash, ijtimoiy sohani rivojlantirish bo'yicha ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilish imkoniyatini beradi. 2027-yilga qadar aholi

daromadlarining prognoz ko'rsatkichi mos ravishda 610624; 665058; 719492; 773926; 828360 mlrd so'm bo'lishini ko'rsatmoqda. Prognozning ishonchlilik darajasi 93% deb baholandi. 2026 yilda aholi daromadini o'sishi kambag'allik darajasi ikki barobar kamaytirishning tizimli yo'naltirilgan iqtisodiy vositalarini takomillashtirishga xizmat qildi.

Xulosa va takliflar.

Xulosa qilib, shuni aytib o'tish mumkinki aholi tadbirkorligini oshirishda banklarning o'rniga bag'ishlangan ilmiy faoliyatning natijalari shuni ko'rsatmoqdaki:

-O'zbekistonda so'nggi yillarda Kambag'allikni qisqartirish chora-tadbirlarini muvofiqlashtiruvchi va bevosita unga javobgar Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tashkil etildi. Kambag'allikka qarshi kurashishning eng asosiy yo'nalishlari bo'yicha ma'sul – mahalla instituti yo'lga qo'yildi. Mahalla instituti tomonidan aholi turmush sharoitini yaxshilash, doimiy va qo'shimcha daromad manbaiga ega qilish, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish yanada o'sishiga xizmat qiladi.

-taxlil natijalarida keltirilishicha, aholining daromadi ko'tarilishi o'z navbatida yurtimiz iqtisodi oshishiga olib keladi buning natijasida, ta'limga va yoshlarni tadbirkorlik ruhida tarbiyalash va shu soxaga mablag' ajratilishi yuzasidan 2027 yilga pragnoz qilinishicha bo'lgan davrda aholining daromadlari hajmi 35,6 foiz oshishi prognoz qilingan.

-iqtisodiy nazariy bilimlarga asoslanib, ta'kidlash lozimki, faqat iqtisodiy o'sish bilangina aholini ishsizlik darajasini pasaytirib bo'lmaydi. Bu borada iqtisodiy o'sishning imkon qadar inklyuzivligini ta'minlash va ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamlarini moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlashning aniq tizimligi oshirish ijobiy natijalar beradi. Bu esa muayyan ishsizlik darajasini kamaytirishga yo'naltirilgan chora-tadbirlar ko'rishni, avvalo, yangi ish o'rinlarini yaratish, ta'lim sifatini oshirish, tibbiyot xizmatlarini yaxshilash, ijtimoiy dasturlar qabul qilib, amalga oshirishni taqozo etadi.

Mamlakatda aholi tadbirkorligini oshirishda banklarning o'rni yuzasidan quyidagi ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqdik:

1. Yangi ish o'rinlarini yaratish, ta'lim sifatini oshirish, tibbiyot xizmatlarini yaxshilash, ijtimoiy dasturlar qabul qilib ularga iqtisodiy ko'mak berildi. Shu yo'l bilan aholiga daromadliligni ta'minlash imkoniyati yaratadi. Bu muhtoj aholi qatlamlarini moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlashga sezilarli darajada xizmat qiladi.

2. Eng muhim ahamiyatli jihatlaridan biri, yurtimizda iqtisodiy o'sish va aholi daromadlarini oshirish maqsadida davlat xarajatlarini tadbirkorlik sohasiga va ta'lim sohasiga ko'proq ajratilishi joriy qilinish darkor. Ushbu holat yoshlarni daromadi oshishi va ilmiy salohiyati yuksalishiga sabab bo'ladi.

3. Yurtimizda aholini qo'llab-quvvatlashda asosan uchta bank ishtirok etadi bular, xalq banki, mikroredit bank va agrobank xisoblanadi, tahliliy ma'lumotlar bank saytida to'liq yoritilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Bizning fikrimizcha, aholi tadbirkorligini oshirishda daromadlilikni ta'minlash masalalari samaradorligini baxolashning ko'rib o'tilgan zamonaviy monitoring tizimi avvalo, shakllantirilgan moliyaviy mabla'lar hamda jamg'arma mablag'larning samarali, maqsadli va manzilli foydalanish uchun shart-sharoit yaratadi.

Adabiyotlar /Jumepamypa/Reference:

G'aniyev M.X. (2023) *Innovatsion iqtisodiyotning shakllanish sharoitida aholi farovonligini oshirish va kambag'allikni qisqartirish yo'nalishlari. Iqt. fan. dokt. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoref.-Toshkent, 31 b.*

Hasanov R.R. (2016) *Kambag'allikning ijtimoiy-iqtisodiy sabablari. "Yangi o'zbekiston iqtisodiyotining makroiqtisodiy barqarorligini taminlash: muammolar, tahlillar va natijalar" konf.tezislar to'plami. -591 B.*

Maxmudov O.X. (2021) *Oilalarda kambag'allikni qisqartirish omillari "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 6, noyabr-dekabr, 269 b.*

Mirziyoev Sh.M. (2021) *Yangi O'zbekiston Starategiyasi*. - Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 464 bet.

mkbank.uz (n.d.) "Mikrokreditbank" ATB rasmiy sayti.

Rikardo D. (1951) *On the Principles of Political Economy and Taxation*. Piero Sraffa (Ed.) *Works and Correspondence of David Ricardo, Volume I*, Cambridge University Press, p. 135. 33.

stat.uz (n.d.) *O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi rasmiy sayti*.

Xiks J.R. (1993) *Стоимость и капитал*. М.: Изд. Группы «Прогресс». 289 стр.

Xudoyberdiev J.J. (2024) *Institutsional o'zgarishlar sharoitida kambag'allikni kamaytirishning ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd). ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoref.*-Toshkent, 28 b.

Петт. В. (1940). *Экономические и статистические работы*. Т. I—II. Перевод под ред. Смит М. Н. Москва: Государственное социально-экономическое издательство, 323 с.

Смит А. (1962). *Исследование о природе и причинах богатства народов*.

Сзя. Ж.Б. (1803) *Трактат политической экономии, или Простое изложение способа формирования, распределения и потребления богатства*.

Фишер С, Дорнбуш Р., Шмалензи Р. (1995) *Экономика*. – Москва, Дело-ЛТД, - 864с.